

TEMPERAMENT VA EMOTSIONAL INTELLEKT UYG'UNLIGI: O'ZBEK OILASIDA NIKOH BARQARORLIGINING PSIXOLOGIK PREDIKTORI

Panjiyeva Nargiza Botirovna

Termiz davlat universiteti

Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18980633>

Annotatsiya

Mazkur maqolada nikoh barqarorligini belgilovchi psixologik omillar sifatida temperament va emotsional intellektning o'zaro uyg'unligi tahlil qilinadi. Nikoh jarayoni ikki shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi sifatida talqin qilinib, temperamentning biologik asoslari va emotsional intellektning shakllanuvchan xususiyati o'rtasidagi bog'liqlik ochib beriladi. O'zbek oilasining ijtimoiy-madaniy konteksti doirasida ushbu omillarning oilaviy barqarorlikka ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari temperament ziddiyat ehtimolini belgilasa, emotsional intellekt ushbu ziddiyatlarni konstruktiv boshqarish imkonini berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: temperament, emotsional intellekt, nikoh barqarorligi, oilaviy munosabat, empatiya, psixologik moslashuv.

Abstract

This article examines the harmony between temperament and emotional intelligence as psychological predictors of marital stability. Marriage is interpreted as the integration of two individuals' psychological characteristics, and the relationship between the biological foundations of temperament and the developmental nature of emotional intelligence is analyzed. Within the socio-cultural context of the Uzbek family, the influence of these factors on family stability is theoretically substantiated. The findings indicate that while temperament determines the likelihood of conflict, emotional intelligence enables constructive conflict management and contributes to long-term marital stability.

Keywords: temperament, emotional intelligence, marital stability, family relationships, empathy, psychological adjustment.

Аннотация

В данной статье анализируется согласованность темперамента и эмоционального интеллекта как психологических предикторов устойчивости брака. Брак рассматривается как интеграция индивидуально-психологических особенностей двух личностей, раскрывается взаимосвязь между биологической основой темперамента и формируемой природой эмоционального интеллекта. В социокультурном контексте узбекской семьи теоретически обосновывается влияние данных факторов на стабильность семейных отношений. Результаты исследования показывают, что темперамент определяет вероятность возникновения конфликтов, тогда как эмоциональный интеллект обеспечивает их конструктивное разрешение.

Ключевые слова: темперамент, эмоциональный интеллект, устойчивость брака, семейные отношения, эмпатия, психологическая адаптация.

Kirish

Nikoh jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, shaxsning psixologik farovonligi va ijtimoiy barqarorligida muhim o'rin tutadi. Ko'pincha nikoh muvaffaqiyati sevgi va hissiy yaqinlik bilan izohlanadi. Biroq zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,

uzoq muddatli nikoh barqarorligi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ayniqsa temperament va emotsional intellekt darajasi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbek oilasi kontekstida nikoh nafaqat ikki shaxsning ittifoqi, balki ikki oila, ikki tarbiya modeli va ikki xil psixologik tizimning birlashuvidir. Shu bois nikoh jarayonida shaxsning tug'ma fe'l-atvori va hissiy boshqaruv ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Temperament: tug'ma asos va kundalik hayot

Temperament shaxsning tug'ma psixofiziologik xususiyatlari majmui bo'lib, hissiy reaksiya tezligi, qo'zg'aluvchanlik darajasi, barqarorlik va muloqot uslubini belgilaydi. Temperament nazariyasi dastlab Gippokrat tomonidan ilgari surilgan bo'lib, keyinchalik Ivan Pavlov tomonidan nerv tizimi xususiyatlari asosida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Psixologiyada xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik temperament turlari ajratiladi. Har bir temperament turining nikoh munosabatlariga ta'siri o'ziga xosdir. Masalan, xolerik tipdagi shaxs tezkor, tashabbuskor va hissiyotga boy bo'lsa-da, impulsivlikka moyil bo'lishi mumkin. Xolerik hamda xolerik tipdagi shaxslar o'zaro oila qurishsa, bu oilada ichki ziddiyatlar, nizoli vaziyatlar tez-tez uchrashi mumkin. Chunki xolerik tipdagi shaxslar tezkor, hissiyotga beriluvchan, ba'zan keskin va murosasiz bo'lishi bilan ajralib turadi, shu sababli ular oilaviy nizolarga tez kirishishi yoki vaziyatni keskinlashtirishi mumkin. Flegmatik tip esa barqaror va vazmin, biroq tashabbusda sustroq bo'lishi ehtimoli mavjud. Nikohda temperament farqlari ziddiyatlarning tabiiy manbai sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq temperament mos kelmasligi nikoh muvaffaqiyatsizligining bevosita sababi emas. U faqat oilaviy munosabatlarning psixologik fonini belgilaydi.

Emotsional intellekt tushunchasi zamonaviy psixologiyada keng o'rganilgan bo'lib, ayniqsa Daniel Goleman tomonidan ommalashtirilgan. Unga ko'ra, emotsional intellekt shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish va samarali ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yish qobiliyatini anglatadi.

Nikoh jarayonida emotsional intellekt quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Mojaro paytida impulsiv reaksiyani nazorat qilish.
2. Empatiya orqali sherikning ichki holatini anglash.
3. Muammoni konstruktiv muhokama qilish.
4. Kechirimlilik va murosaga tayyorlik.

Agar temperament biologik asos bo'lsa, emotsional intellekt psixologik reguliator vazifasini bajaradi. Ya'ni, temperament ziddiyat ehtimolini oshirishi mumkin, ammo emotsional intellekt ushbu ziddiyatni destruktiv yoki konstruktiv yo'nalishda rivojlanishini belgilaydi. Ya'ni aqliy faoliyat mojaro jarayonida inson harakatini salbiy hamda ijobiy tomonga qarab ketishini nazorat qiladi. Empatiya orqali suhbatdoshning holatini inson bevosita tanasida his qilganligi tufayli, unga sherik bo'ladi, qayg'usini yengillatishga yordam beradi. Biz psixologlar uchun yuz ifodasi orqali ichki kechinmalarni bilib olish unchalik qiyin vazifa emas, ammo uni oshkora e'lon qilinishi konfindinsiallik tamoyilini buzib qo'yishi mumkin. Shuningdek yechimga olib boruvchi yo'lni birmuncha qiyinlashtiradi. Muammoni barham topishida ikki tomonni o'zaro kelishuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Hayot jarayonida inson kechirimli bo'lishi darkor chunki har bir kishi xato qiladi. Xatolarni kechirish esa kuchlilarga xos tushunchadir.

O'zbek oilasi kontekstida masalaning dolzarbligi

O'zbek mentalitetida nikoh shaxsiy emas, ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Kengaytirilgan oila tizimi, kattalarga hurmat, sabr va murosa qadriyatlari yosh oilaga ma'lum bosim va bir vaqtning o'zida tayanch yaratadi. Shu sababli er-xotin o'rtasidagi temperament farqi ba'zan nafaqat ularning o'zaro munosabatiga, balki qarindoshlar bilan aloqalarga ham ta'sir qiladi. Masalan, hissiyotini ochiq ifoda etadigan kelin yoki kuyov an'anaviy, vazmin muhitda "hurmat-siz" deb noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Bu esa ichki ziddiyatni kuchaytiradi. Bunday vaziyatlarda yuqori emotsional intellekt - vaziyatni to'g'ri baholash, so'z va ohangni nazorat qilish, empatiya ko'rsatish - oilaviy barqarorlikni saqlab qoluvchi omilga aylanadi.

Nikoh barqarorligini faqat temperament mosligi bilan tushuntirib bo'lmaydi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ba'zan temperament jihatdan mutlaqo farqli juftliklar uzoq va baxtli yashaydi. Buning sababi - ularning emotsional intellekti yuqori, ya'ni farqlarni boshqarish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Shunday qilib, temperament ziddiyat ehtimolini belgilasa, emotsional intellekt ushbu ziddiyatning qanday yakun topishini aniqlaydi. Aynan shu uyg'unlik nikoh barqarorligining psixologik prediktori sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, mustahkam oila qurish uchun sevgi muhim, ammo yetarli emas. Tug'ma fe'l-atvorni inkor etib bo'lmaydi, lekin uni boshqarish mumkin. O'zbek oilasida nikohning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda, temperament va emotsional intellekt uyg'unligi oilaviy totuvlikni belgilovchi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Demak, nikohga tayyorgarlik nafaqat moddiy yoki tashkiliy masala, balki chuqur psixologik tayyorgarlik jarayonidir. O'z fe'lini anglash va his-tuyg'ularni boshqarishni o'rganish - mustahkam oilaning eng ishonchli poydevoridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books.
2. Pavlov, I. P. (1927). *Conditioned Reflexes: An Investigation of the Physiological Activity of the Cerebral Cortex*. Oxford: Oxford University Press.
3. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz ; ISBN: 978-9943-28-982-6 ; Автор: Sh. M. Mirziyoyev
4. Abdilkhakimovna, Mamaradjabova Bogzoda. "Psychological Mechanisms of the Influence of Self-Awareness Strategy on the Development of Children's Emotions in the Family." *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science* 2.3 (2024): 229-232.
5. Shoumarov G.B., Haydarov O., Sog'inov N.A. va boshq.; *Oila psixologiyasi: o'quv qo'llanma.*– T.: «Sharq», 2015. — 296 b.